

**STIVEN EDVIN KING QALAMIGA MANSUB “JANOB MERSEDES”  
ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING INGLIZ TILIDAN O’ZBEK TILIGA  
TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI**

*Termiz davlat universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti,  
Gid hamrohligi va tarjimonligi faoliyati yo`nalishi talabasi*

***Teshayev Asilbek***

*Email: asilbekzarifovich@gmail.com*

**Annotatsiya**

Mazkur maqola Stiven Edvin King tomonidan yozilgan “Janob Mercedes” asari tarkibidagi antroponimlarning ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjimasi va ularning mohiyatini lingvistik nuqtai nazardan o’quvchi uni anglashi uchun ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda tahlil qilingan. Obyekt sifatida tanlangan ismlar asosan tabiat in’omlari bo’lmish o’simliklar bo’lib o’zbek tilida bunday ma’nodagi ismlar deyarli uchramaydi ya’ni o’quvchilar uchun begona. Shu tufayli maqolada tarjimon ularni o’zbek tiliga o’girishdan oldinetimologik, leksikologik, semantik va fonetik tahlil qilish uchun qoliplar taklif qilingan.

**Kalit so’zlar:** transformatsiya, ingliz-o’zbek tarjima, Stiven Edvin King, transliteratsiya.

**Abstract**

This article analyzes the translation of antroponyms from English into Uzbek about Stiven Edin King’s “Mr Mercedes” and their essence from the linguistic point of view, taking into account the factors that influence the reader to understand it. The names chosen as objects are mainly plants that are gifts of nature, and in the Uzbek language such names are almost non-existent, that is, they are unfamiliar to students. As a result, the article offers templates for etymological, lexical, semantic and phonetic analysis before the translator translates them into Uzbek language.

**KEY WORDS:** transformation, english uzbek translation, Stiven Advin King, transliteration.

### **Kirish**

Janob Mercedes — amerikalik yozuvchi Stiven Kingning romani bo`lib u buni asarini o'zining puxta o`ylangan detektiv romani deb ataydi. Bu roman 2014-yil 3-iyunda chop etilgan. Maqola obyekt sifatida olingan asar trilogiyaning birinchi jildi hisoblanadi. Undan keyin qolgan qismlari chop etilgan.

Stiven Edvin King (1947-yil 21-sentyabrda tug`ilgan) — dahshat, g`ayritabiiy fantastika, shubha, jinoyat, ilmiy-fantastik va fantastik romanlarning muallifi sifatida qaraladi. Ushbu yozuvchi "Dahshat qirol" sifatida ta'riflangan bo`lib, uning familiyasidagi "King" ya`ni "Qirol" spektakl va uning pop-madaniyatdagi yuksak mavqeiga ishora. Uning kitoblari 350 million nusxadan ko'proq sotilgan va ko'plari filmlar, televideniye ga moslashtirilgan. seriyalar, mini-seriiallar va komikslar. King 64 ta roman, jumladan, Richard Baxman taxallusi ostida yettita roman va beshta badiiy bo`lmagan kitoblarni yozgan. Shuningdek, u 200 ga yaqin hikoyalar yozgan, ularning aksariyati katta to'plamlarda nashr etilgan.

Bundan tashqari ushbu maqolada antroponimlarni tarjima qilish jarayonida fonetik o`zgarishlarga uchrashi yoritib berilgan. Bu o`rinda transliteratsiya usulidan foydalanilgan. **Transliteratsiya** (lotincha: trans — „qarshi“, „orqali“ va littera — „harf“) deb bir yozuv tizimidagi matnni boshqa yozuv tizimidagi belgilar bilan berishga aytiladi. Yaniy tarjima jarayonida asl matn tilida keltirilgan atoqli otlar, geografik joy nomlarini tarjima qilib bolmaydi. Ulardagi bazi tovushlarni tarjima tiliga boshqa tovushga o`zgartirilishga aytiladi.

### **Adabiyotlar tahlili metologiyasi**

Maqola uchun tadqiqot davomida qiyosiy adabiyotlar, lingvistik atamalarning qarama-qarshi va tavsifli tarjima hamda badiiy tarjimaning stilistik tahlillari o`rganildi.

Natijalarga uch xil qarash bilan nazar tashlash mumkin. Birinchidan, nomlar tarjima qilinishi kerakmi yoki ayrim tarjimonlar ularni tarjima qilganmi, agar shunday bo`lsa, tarjima tiliga qanday tarjima qilinganini tekshirish. Ikkinchidan,

obyektlarni tarjima qilish uchun ishlatiladigan strategiya va usullarni ko'rib chiqish va yechimni ko'rsatish. Uchinchidan, inglizcha-inglizcha taqqoslash va zidlash orqali ismlarning semantik yoki tavsifiy ma'nosini o'rganishdan iborat.

Antroponimlar etimologiyasi va orfografik transformatsiyaga uchraganligi hamda tarjimonning qarashlari orqali tahlil qilinadi.

### **Natijalar**

Maqola uchun tadqiqot davomida qiyosiy adabiyotlar, lingvistik atamalarining qarama-qarshi va tavsifli tarjima hamda badiiy tarjimaning stilistik tahlillari o'rganildi.

Natijalarga uch xil qarash bilan nazar tashlash mumkin. Birinchidan, nomlar tarjima qilinishi kerakmi yoki ayrim tarjimonlar ularni tarjima qilganmi, agar shunday bo'lsa, tarjima tiliga qanday tarjima qilinganini tekshirish. Ikkinchidan, obyektlarni tarjima qilish uchun ishlatiladigan strategiya va usullarni ko'rib chiqish va yechimni ko'rsatish. Uchinchidan, inglizcha-inglizcha taqqoslash va zidlash orqali ismlarning semantik yoki tavsifiy ma'nosini o'rganishdan iborat.

Antroponimlar etimologiyasi va orfografik transformatsiyaga uchraganligi hamda tarjimonning qarashlari orqali tahlil qilinadi.

### **Muhokama**

Ushbu asardagi shaxslar uchun qo'yilgan nomlarning ko'pchiligida transliteratsiya usulidan foydalanilgan.

Kermit Wiliam - Bosh qahramon va iste'fodagi detektiv. Bunda "Wiliam" so'zidagi "w" harfi o'zbek alifbosida bo'lmagani uchun ushbu harf o'rniga "ui" birikmasi olingan. Keyinchalik hikoyada u Oliviyaning singlisi Jeneyni sevib qoladi.

Brediy Xartsfield - Asosiy antagonist va janob Mercedes. Bu ismda esa "Breny"dagi ohirgi "y" harfi o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun "Bredi" ko'rinishida tarjima qilingan.

Jerome Robinson - Xodgesning yollangan yordamchisi va yaqin do'sti. U aqlli, kompyuterni yaxshi biladigan o'smir. Ingliz tilida ohirida kelgan unlilar ko'p hollarda o'qilmaydi, shu sababli o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun "Jerome" so'zining ohiridagi "e" harfi olib tashlangan.

Olivia Trelawney - Mercedes Benzga tegishli bo'lgan boy ayol. Bu ismda "Trelway" ismidagi "w" harfi ham o'zbek tilida mavjud emas. Shu sababi "Trelvay" deb tarjima qilinga. Va yana shunga o'xshash bir qancha atoqli otlar transliteratsiya usulida o'zbek tiliga o'girilgan.

Janelle Patterson – Janel Paterson

Piter Xantley – Piter Xentli

Deborah Ann Xartsfield – Debora En Xartsfild

Elizabeth Whorton – Elizabet Uorton

### **Xulosa**

Ushbu maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga gaplarning va so'zlarning, so'z birikmalarining tarjimasidagi turli kichkina muammolarning bir nechtasi izohlari va matndagi ma'nolarining muqobillashtirilgan va uslubiy bo'yoqqa asoslanganlari berilishiga harakat qilindi. Har bir atoqli otlar ma'lum bir sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Har bir nom o'z tarixi biografiya va geografiasiga ega bo'ladi. Nomlar shaxslarni o'zaro farqlash ehtiyojidan tashqari ijtimoiy-lisoniy vazifasiga ko'ra ism beruvchi ning muayyan maqsadini ham ifoda etadi. Turli xalq nomlarini turli jihatlardan: lisoniy, etimologik, fonetik, morfologik, va boshqa xususiyatlariga ko'ra tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, antroponimlar millatning, xalqning milliy urf-odat va an'alarini, dunyoqarashi, madaniyatini o'zida aks ettiradi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.dragoma.uzen>
2. [www.hachette.com/en/maison/azbooka-atticus](http://www.hachette.com/en/maison/azbooka-atticus)
3. <http://www.merriamwebster.com/dictionary/querulous>
4. Solijonov J.K. Garri Potter va Afsungarlar toshi. – Termiz: Surxon-Nashr
5. <https://kun.uz/uz/news/2017/06/23/arri-potter-aslida-ikkita-ulganmi?q=%2Fnews%2F2017%2F06%2F23%2Garri-potter-aslida-ikkita-bulganmi>
6. <https://kun.uz/uz/news/2017/06/26/arri-potter-akidagi-birinci-ertakka-20-jil-tuldi>
7. <https://kun.uz/uz/114051?q=%2F114051>  
<http://www.accioquote.org/articles/1999/1099-connectiontransc2.htm>